

O‘SMIR YOSHDAGI QIZLARNING AYRIM MORFOFUNKSIONAL KORSATKICHLARINI TAXLIL QILISH

M.Dumayeva

Andijon davlat pedagogika insituti magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada rivojlanish deganda, tom ma’nodan odam organizmida kuzatiladigan, uning barcha tizimlarining tashkillanish darajalarini murakkablashishini oshirishni chaqiruvchi miqdoriy va sifatiy o‘zgarish jarayonlari tushuniladi. Rivojlanish o‘z ichiga uchta asosiy omilni qamrab oladi; o‘sish organ va to‘qimalarning tabaqalanishi, shakllanish (organizmga xos va monand bo‘lgan shaklni olishi). Ushbu omillar bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-birini to‘ldirib turadi.

Kalit so‘zlar: O‘sish, rivojlanish, urug‘, yosh, bashorat, odam organizmi, suyaklar, o‘pka, muskullar, asab to‘qima, organism, bola, bo‘y uzunligi, voyaga yetgan odamlar.

Abstract: In this article, development means the processes of quantitative and qualitative changes observed in the human organism, which call for an increase in the complexity of the levels of organization of all its systems. Development includes three main factors; growth, differentiation of organs and tissues, formation (acquiring an organism-specific and monad form). These factors are interrelated and complement each other.

Key words: Growth, development, seed, age, prediction, human organism, bones, lungs, muscles, nervous tissue, organism, child, height, adult people.

Аннотация: В данной статье под развитием понимаются процессы количественных и качественных изменений, наблюдаемые в организме человека, которые требуют увеличения сложности уровней организации всех его систем. Развитие включает в себя три основных фактора; рост, дифференцировка органов и тканей, формирование (приобретение организмоспецифической и монадной формы). Эти факторы взаимосвязаны и дополняют друг друга.

Ключевые слова: Рост, развитие, семя, возраст, предсказание, организм человека, кости, легкие, мышцы, нервная ткань, организм, ребенок, рост, взрослые люди.

O‘sish va rivojlanish tushunchalari. O‘sish va rivojlanish jarayonlari tirik materiyaning umumbiologik xususiyatlari hisoblanadi. Tuxum hujayrasining urug‘lanishidan boshlanadigan odamning o‘sish va rivojlanishi, uning butun umri davomida kechadigan uzluksiz bajaraluvchi jarayon namoyon qiladi. Rivojlanish jarayoni poygasimon holatda kechib, uning hayotini bosqichlari yoki davrlari orasidagi farqlar faqatgina miqdoriy jihatdangina emas, balki sifatiy jihatdan ham o‘zgarishlarga olib boradi.

U yoki bu fiziologik tizimlarni tuzilishi yoki faoliyatidagi yoshga oid xususiyatlarning mavjudligi yoshlik davrining ayrim bosqichlaridagi bola organizmining to‘la qimmatli yoki qimmatli emasligi haqidagi, bashorat yoki aniq ma’lumot bo‘lib hisoblanmaydi. Aynan shu xildagi kompleks xususiyatlariga u yoki bu yoshni tavsiflab beradi.

Rivojlanish deganda, tom ma’nodan odam organizmida kuzatiladigan, uning barcha tizimlarining tashkillanish darajalarini murakkablashishini oshirishni chaqiruvchi miqdoriy va sifatiy o‘zgarish jarayonlari tushuniladi. Rivojlanish o‘z ichiga uchta asosiy omilni qamrab oladi; o‘sish organ va to‘qimalarning tabaqalanishi, shakllanish (organizmga xos va monand bo‘lgan shaklni olishi). Ushbu omillar bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-birini to‘ldirib turadi.

Bola organizmining voyaga yetgan organizmidan farq qiluvchi rivojlanish jarayonining asosiy fiziologik xususiyatlaridan biri organizm vaznining tinimsiz ortishi va uning hujayralari sonini yoki ularning o‘lchamlarini o‘zgarishi bilan birgalikda kechuvchi miqdoriy jarayon ya’ni o‘shish hisoblanadi.

O‘shish jarayonida hujayralar soni, gavda vaznini va antropometrik ko‘rsatkichlari ortadi. Suyaklar, o‘pka kabi ayrim organlarda o‘shish asosan hujayralar sonini ortishi hisobiga ko‘payishi, boshqa organlarda (muskullar, asab to‘qimalarda) hujayralarning o‘lchamlarini ortishi jarayoni ustunlik qiladi. O‘shish jarayoniga bunday aniqlik berilishi yog‘larni o‘tirishi yoki suvning ushlab qolinishi bilan ta’minlanuvchi gavda vazni va o‘lchamlarini o‘zgarishlarini hisobga olmaydi. Organizmni o‘shishini ko‘rsatuvchi aniq ko‘rsatkich – bu undagi oqsillarning umumiy miqdorini oshishi va suyaklar o‘lchamlarning kattalashishidir. Bola o‘shishini ancha jadallashgan davri hayotining birinchi yilida va jinsiy yetilish davrida, ya’ni 11-15 yoshlik bo‘lgan paytlarga to‘g‘ri keladi. Endi tug‘ilgan bolaning bo‘yi 50 sm bo‘lgan bo‘lsa, bir yoshning oxiriga kelib 75-80 sm.gacha yetadi, ya’ni 50 % dan ortishi kuzatiladi, gavda og‘irligi esa uch martaga – ya’ni yangi tug‘ilgan bola bor yo‘g‘i 3,0-3,2 kg bo‘lsa, birinchi yil oxiriga kelib 9,5-10,0 kg gacha yetadi. Keyingi yillarda jinsiy voyaga yetish davrigacha o‘shish tempi pasayadi va o‘rtacha yiliga 1,5-2,0 kg qo‘shilsa, bo‘y uzunligi 4,0-5,0 sm. ga o‘sadi.

O‘shish tempining ikkinchi marta sakrashi jinsiy yetilish davrining boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bo‘y uzunligi bir yilda 7-8 sm.gacha hatto 10 sm.gacha ortadi. Vaholanki 11-12 yoshda qizlar o‘shish bo‘yicha o‘g‘il bolalardan bo‘ydorrog‘ bo‘ladilar. 13-14 yoshda ularning bo‘ylari deyarlik bir xil bo‘lsa, 14-15 yoshga borib esa bo‘yi bo‘yicha o‘g‘il bolalar qizlardan o‘tib ketadilar va bu ortiqlik butun hayot davomida saqlanib qoladi.

Yangi tug‘ilish davridan to‘to‘lig‘icha voyaga yetish yoshigacha tana uzunligi –3,5 marta, gavda uzunligi –3 marta, qo‘llar uzunligi –4,5 marta oyoqlar uzunligi esa –5 marta ortadi. Yoshga qarab tana proporsiyasi ham kuchli almashadi.

Yangi tug‘ilgan bola voyaga yetgan odamlarga nisbatan oyoqlarning kaltaligi, gavda va boshining kattaligi bilan farq qiladi. Yangi tug‘ilgan bola boshining balandligi gavda uzunligining 1/2 qismini, 2 yoshli bolada 1/5, 6 yoshda 1/6, 12 yoshda 1/7 va voyaga yetgan odamlarda –1/8 qismini tashkil qiladi, yosh o‘tishi bilan bosh o‘shishi sekinlashib, oyoqlariniki esa tezlashadi.

Bolalar va osmirlarning jismoniy rivojlanish kursoratkihlari oilada va hamda maktabgacha va maktab muassasalarida tarbiyalash va oqitish sharoitlarini qanday yaratganligiga bogliqdir. Bunda eng ko‘p axamiyatga ega boladigon omillar qatoriga bolalarning ovqatlanish sifati jismoniy yuklamalarning xarakteri va darajasi o‘qish joylarining tashkil etilganligi oqilona tuzulgan va bajariladigon kun tartibi maktabdagi dasrlarning kun tartibi va xarakteri bolalar muassasalaridagi sanitar texnik jixozlarning sozligi xonalarning yoritilish sifati va boshqalar kiradi, Shuning uchun vrach bolalar va osmir bolalarning jismoniy rivojlanish belgilarini tekshirish va baholay olishni bilishi va olingan natijalar asosida ularga yaratilgan tarbiyalash va oqitish sharoitlari haqida fikr yuruta olishi kerak.

Davriy ravishda osmir qizlarning jismoniy rivojlanish kursoratkihlarni o‘rganish soglomlashtiruvchi profilaktik chora tadbirlarini belgilashda qolaversa o‘shish va rivojlanish qonuniyatlariga oid ma’lumotlarni olishda katta axamiyat kasb etadi shu maqsadda biz o‘zimizning tadqiqot ishlarimizni o‘smir yoshdagi qizlarni ayrim eng muhim morfologik hamda fiziologik kursoratkihlarni o‘rganmoqchi bo‘ldik. Kuzatuv ishlarimizga Andijon viloyati

umumatalim maktablaridan ixtiyoriy ko’ngilli sog’lom qizlarni kuzatuvga jalb qildik eng muhim morfologik ko’rsatkichlardan tana og’irligi bo’yni umimiy uzunligi ko’krak qafas aylana uzunligi fiziologik ko’rsatkichlardan esa yurak urushlar soni va qon bosimi ko’rsatkichlarini belgilab oldik. Tajriba metodikasi belgilangan standart biologik antropometrik va fiziometrik usullardan foydalangan xollarda amalga oshirildi olingan natijalar quyidagilarni tashkil qildi

O’smir yoshdagi (18yosh qizlarning tana ogirligi o’rtacha $60,1 \pm 1,0$ kgni tashkil qilsa boyni umimiy uzunligi o’rtacha $167,4 \pm 0,7$ santimetrni tashkil qildi. Ko’krak qafas aylana uzunligi tinch xolatda sut bezlari ro’parasidan o’lchaganimizda o’rtacha $84,0 \pm 1,0$ smni tashkil qilgan bo’lsa chuqur nafas olganda o’rtacha $86,7 \pm 1,1$ smni hamda chuqur nafas chiqarganda o’rtacha $81,0 \pm 0,82$ smni tashkil qildi Fiziologik ko’rsatkichlardan aynan shu yoshdagi qizlardan yurak urushlar soni o’rtacha $84,6 \pm 0,61$ tani tashkil qilgan bo’lsa qon bosimi sistolik ko’rsatkichi $109,6 \pm 0,11$ ml .s.u.diastolik ko’rsatkichi o’rtacha $74,6 \pm 2,1$ ml s.u ga teng ekanligini ko’rishimiz mumkin shu bilan birga o’pkaning tiriklik sig’imi $2666 \pm 60,5$ ml ni tashkil qildi.

Olingan malumotlarni taxlil qilar ekanmiz ko’rsatkichlarni deyarli barchasi adabiyotlarda berilgan ko’rsatkichlarga deyarli yaqin bo’lib o’sish va rivojlanish qonuniyatlari asosida borayotganini ko’rishimiz mumkin.

Yurak urushlar sonini bizning nazarimizda biroz yuqoriroq ekanligi bu yoshda gormonal o’zgarishlar bilan uzviy bog’liqdir bizning kuzatuv tadqiqot ishlarimiz davom etar ekan kelgusida sport bilan shug’ullanuvchi qizlarning jismoniy rivojlanish ko’rsatkichlarini o’rganib ularning qiyosiy solishtirma taxlilini xam qilib ko’rmoqchimiz. Biz tomondan olingan ma’lumotlar yoshlar fiziologiyasini o’qitishda sog’lomashtiruvchi ishlarni belgilashda meyoriy standartlarni belgilashda ishlatilinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. A.Allamurodov "ulg'ayish fizilogiyasi"
2. R.Klemeshova"yoshga oid fiziologiya "
3. L.Qochqarova"yoshlar fiziologiyasi va gigieniyasi"
4. Arxiv uz saytlaridan foydalanildi.